


NAVOIY VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1- avgust holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026- yil 1- avgust holatiga ko'ra, viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 22 308 tashkil etadi, shundan 19 730 tasi yoki 88,4 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025- yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 109,4 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda 110,5 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda)

Yil	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
2026	22 308	19 859	19 730
2025	20 396	17 953	17 856
2024	20 947	18 650	18 560
2023	22 299	20 092	19 996
2022	24 059	21 860	21 760

Hududlar bo'yicha eng ko'p faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar Navoiy shahrida– 25,1 foiz, Karmana – 16,4 foiz, Qiziltepa – 13,1 foiz, Xatirchi – 10,1 foiz va Navbahor 9,3 foiz tumanlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi G'ozg'on shahrida – 92,7 foiz va 92,7 foiz, Zarafshon shahrida – 90,8 foiz va 90,2 foiz, Karmana – 92,5 va 92,0 foiz, Qiziltepa – 90,8 foiz va 90,6 foiz hamda Navbahor – 90,2 va 90,0 foiz tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Navoiy shahar	5 608	4 971	4 919
Zarafshon shahar	1 529	1 388	1 379
G'ozg'on shahar	481	446	446
Konimex tumani	1 078	932	919
Qiziltepa tumani	2 915	2 648	2 641
Navbahor tumani	2 074	1 871	1 866
Karmana tumani	3 664	3 389	3 371
Nurota tumani	1 488	1 283	1 276
Tomdi tumani	516	426	420
Uchquduq tumani	705	578	572
Xatirchi tumani	2 250	1 927	1 921

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes sub'yektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda, ularning ulushi 2026- yil 1- avgust holatiga 35,8 foizni (40,2 foiz va 40,4 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 13,0% (14,5% va 14,4%), uchinchi o'rinda "Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi" 11,3% (12,6% va 12,6%).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 60% dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 520	2 495	2 485
Sanoat	2 892	2 882	2 844
Qurilish	1 362	1 349	1 337
Savdo	7 986	7 985	7 965
Tashish va saqlash	795	793	787
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1 569	1 566	1 562
Axborot va aloqa	342	331	330
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	537	335	331
Boshqa turlar	4 305	2 123	2 089

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-avgust holatiga ko'ra, 19 859 ta faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalaridan 13 512 tasi mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etilgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.




Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	13 512	68,0
Xususiy korxonalar	3 419	17,2
Oilaviy korxonalar	2 839	14,3
Aksiyadorlik jamiyati	15	0,1
Boshqalar	74	0,4

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 335 ta korxonalardan 118 tasi qo'shma korxonalar va 217 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026- yilning 1-avgust holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni, 2025-yilning mos davriga nisbatan 49 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 162 tadan 192 taga, (o'sish 30 taga), qurilish sohasida 23 tadan 25 taga (o'sish 2 taga), savdo sohasida 41 tadan 43 taga (o'sish 2 taga) hamda tashish va saqlash sohasida 6 tadan 11 taga (o'sish 5 taga) ko'payishi hisobiga yetdi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	335	118	217
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	21	8	13
Sanoat	192	82	110
Qurilish	25	5	20
Savdo	43	9	34
Tashish va saqlash	11	4	7
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3	1	2
Axborot va aloqa	18	3	15
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	3	1	2
Boshqa turlar	19	5	14

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilganda, yetakchi o'rinni 143 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 42,7 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shayotgan mamlakatlar orasida Rossiya Federatsiyasi (11,6%), Turkiya (9,3%), Qozog'iston (4,5%) va Eron (4,2%) ham alohida o'rin egallaydi.

Davlatlar	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	335	118	217
Xitoy	143	35	108
Rossiya	39	13	26
Turkiya	31	10	21
Qozog'iston	15	5	10
Eron	14	9	5
AQSH	9	7	2
Janubiy Koreya	9	6	3
Hindiston	8	6	2
Tojikiston	7	1	6
Turkmaniston	6	-	6
Niderlandiya Qirolligi	5	2	3
BAA	5	2	3
Belorussiya Respublikasi	4	2	2

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022- yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026- yil 1- avgust holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va statistik
registrlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
N. Xatamova
79 223-62-47

Maznil:
210100, Navoiy sh.,
Amir Temur ko'chasi, 4
